



O'ZMU XABARLARI

ВЕСТНИК НУУЗ

АКТА NUUZ

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

**JURNAL
1997 YILDAN
CHIQA
BOSHLAGAN**

**2024
1/10**

**Ijtimoiy-
gumanitar
fanlar turkumi**

Bosh muharrir:

MADJIDOV I.U. – t.f.d., professor.

Bosh muharrir o'rinbosari:

ERGASHOV Y.S. – f-m.f.d., professor.

SHIRINOVA R.X. – fil.f.d., professor.

Tahrir hay'ati:

Sagdullayev A.S. – t.f.d., akademik.

Ashirov A.A. – t.f.d., prof.

Balliyeva R. – t.f.d., prof.

Malikov A.M. – t.f.d., prof.

Yusupova D.Y. – t.f.d., prof.

Yunusova X.E. – t.f.d., prof.

Murtazayeva R.H. – t.f.d., prof.

Mo'minov A.G. – s.f.d., prof.

Abdulayeva N.B. – f.f.d., prof.

Madayeva Sh.O. – f.f.d., prof.

Tuychiyev B.T. – f.f.d., prof.

Utamuradov A. – f.f.n., prof.

Muxammedova D.G. – psix.f.d., prof.

Boltaboyev H. – fil.f.d., prof.

Rahmonov N.A. – fil.f.d., prof.

Siddiqova I.A. – fil.f.d., prof.

Sa'dullayeva N.A. – fil.f.d., dots.

Arustamyan Y.Y. – fil.f.d., dots.

Pardayev Z.A. – fil.f.f.d., dots.

Mas'ul kotib: **PARDAYEV Z.A.**

TOSHKENT – 2024

MUNDARIJA

Tarix

Abdullaev B. Zardushtiylikning shakllanishida Turon xalqlarining tarixiy roli	4
Abdullayev Z. Boshqaruv tizimida normativ-huquqiy hujjatlar: ziddiyat va yechimlar	7
Akramova Y. XIX asr oxirida Afg'oniston haqida to'plangan ma'lumotlar tahlili	11
Karimov Z. Janubiy Orolbo'yi va G'arbiy Zarafshon madaniy-xo'jalik markazlarida kechgan jarayonlar (mil. avv IV – I asrlar)	15
Komilova Sh. Ayollar migratsiyasi masalasini ilmiy o'rganilishiga doir mulohazalar	19
Mingnorov A. O'zbekistonda o'tkazilgan yer-suv islohotining davriy matbuotda yoritilishi	23
Nizomiddinov O. 1920 – 1930 yillardagi Farg'ona vodiysi voqealari: ocharchilik va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar	26
Omonova S. Sovet davrida yoshlar o'rtasida sport spartakiadalarni uyushtirilishi	30
Rashidov O'. Rossiya siyosiy agentligining Buxoro amirligi davlat boshqaruviga ta'siri	33
Rezvonova A. Buxorodagi Mir Arab madrasasi tarixiga doir ba'zi mulohazalar	37
To'xtaboev A. O'zbekistonda aeroportlar qurilishi va faoliyati tarixi (1920-50-yy.)	41

Falsafa. Pedagogika. Psixologiya. Metodika. Sotsiologiya. Siyosiy fanlar. Islomshunoslik

Abbasova M. Sog'lom ma'naviy raqobatning ijtimoiylashuv jarayonidagi ahamiyati	44
Abdullayeva L. Developing foreign language teacher's intercultural competence	47
Agabayev Sh. Yoshlar – O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurishning asosiy tayanchi	50
Aliev I. Ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish	54
Alimdjano F. Global iqlim o'zgarishlari sharoitida shahsning ekologik faolligini oshirishga oid horijiy tajribalar	57
Аманулла З. Подготовка высококвалифицированных специалистов со знанием иностранных языков в Китайских вузах в контексте инициативы «Один пояс, один путь»	60
Анорбоева С. Системы подготовки переводчиков в вузах Узбекистана и современная модель профессиональной компетенции переводчика	63
Ahrorov S. Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik omillari	67
Berkinov O. Kibermakonning ontologik xususiyatlari	70
Dushanov R. Oliy ta'lim tizimida o'qituvchining pedagogik-psixologik kompetentligini takomillashtirish masalalari	74
Jamolova G. Talabalarda milliy identiklikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish	77
Igamberdiyev O. Ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida futbolchilarni tayyorlashda dominant omillarning ahamiyatini o'rganish	80
Iskandarov A. Didaktik maqsadga ko'ra kimyoviy masalalarning klassifikatsiyasi	84
Karimov F. Boshlang'ich tayyorlov bosqichidagi uzunlikka sakrovchilarni yillik mashg'ulotlarini rejalashtirishdagi muammolar	88
Qilichev F. Hozirgi davrda diniy ekologik qadriyatlar transformatsiyasi	92
Qo'ziboeva O., Xabubullayeva M. Geografiya ta'limi jarayonida o'quvchilarga milliy meros va qadriyatlarining o'qitilish samaradorligini takomillashtirish	95
Латипова Н., Мухаммадиева Н. Благополучие как социально-психологический индикатор независимой жизни у лиц с инвалидностью	97
Madrahimov A. Maktablardagi zo'ravonlik (Bulling) hodisasining tuzilmaviy tahlili	101
Mamutova G. O'qituvchilarning matematik tafakkur va qobiliyatlarni rivojlantirishning metodologik omillari	106
Mannabov A. Zamonaviy harbiy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida loyihalash, dasturlash va rejalashtirish texnologiyalarini takomillashtirish	109
Mahkamova D. Xotin-qizlarning davlat xizmatlariga ijtimoiy moslashuvining psixosotsial determinantlari	113
Mirzasoliyev J. Oila va nikoh masalalariga o'tmish ajdodlarimizning qarashlari	117
Musurmonqulov O. Social education – as a socio-historical, legal and objective process	120
Musurmonov M. "Impulsning saqlanish qonuni"ni ekologik bilimlar integratsiyasi asosida o'qitish	123
Nazarova Sh. Chet til o'qitish jarayonida 10-11 sinf o'quvchilarining o'qish va yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	129
Nasimov O. Ko'ppartiyaviylik tizimi fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim institutsional asosi sifatida	132
Nurmatov U. Pedagogik jamoa va uni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	135
Olimova A. Geografiyani o'qitishda kartografik metodni qo'llashning zamonaviy yondashuvlari va asosiy tamoyillari	138
Olimova M. Inson manfaatlarini himoyasining mafkuraviy omillari va ijtimoiy-falsafiy ahamiyati	141
Орипов Ф. Сущность экологических проблем и философия ненасилия	144
Primov B. Axborot asrida kiber informatsion xavfsizlik	147
Rajabov H. Axborot urushlarining evolyutsiyasi va kelajagi	150
Raximova Y. Vohid Turk – Navoiy ijodi tadqiqotchisi	153
Rahimjonova A. Organizing independent education at higher educational institutions in the credit module system	156
Рузимова Д. Повышение профессиональной компетентности будущих учителей русского языка посредством интеграции теории, практики и современных образовательных технологий: опыт педагогической деятельности	159
Temirova N. Begonalashuv tushunchasi talqini uning sabablari va bartaraf etish zarurati	162
Tleubayeva G. Oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalarni aniqlashda testlarning o'rni	165
Turgunova A. Andragogika – kattalar ta'limi nazariyasi	169
Turdiyev Z., Kuchkarov M. Kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish bosqichlarida mnemonika elementlaridan foydalanish	172
Urinova U. Analysis of the system of activities and tasks aimed at improving public speaking skills	175
O'sarov Sh. Ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda kreativ pedagogikaning ijtimoiy-falsafiy aspektlari	178
Xakimova M. Talabalarda ma'naviy qadriyatlarni ta'lim olish jarayonida texnologiyalar bilan rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	181

Xalbayeva G. Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonini takomillashtirish mexanizmi	184
Hodiyeva Y. Scamper texnologiyasi asosida talabalarda strategik kompetensiyani rivojlantirish	187
Шакиржанова К., Люлина Е. Итоги выступления национальной сборной команды Узбекистана на XXXIII Олимпийских играх в Париже	191
Sharopova M., Okbayeva N., Abdurahmonova N. Oliy ta'lim talabalariga kombinatorika elementlarini o'qitishda axborot va interfaol texnologiyalardan foydalanish	195
Shokirova D. Ta'lim jarayonida pedagoglarni innovatsion g'oya va texnologiyalarni qo'llashida o'z-o'zini rivojlantirish nazariyasi ..	198
Ergasheva G. O'zbek tilini xorijiy til sifatida boshlang'ich va o'rta darajadagi til o'rganuvchilarni o'qitishning o'ziga xosliklari	201
Ergasheva S. Ta'lim muassasasi rahbarining kasbiy faoliyatga yo'nalganligini baholashning psixologik xususiyatlari	204
Ergasheva F. Raqamli ta'lim sharoitida talabalarining metakompetentligini rivojlantirish muammolari	207
Yunusxodjayev Z. Er-xotin munosabatida rollar taqsimoti dinamikasining obyektiv va subyektiv konteksti	211

Filologiya

Abdullayev B. O'zbekistonda og'zaki reklamalar tarixi va badiiy ijod namunalarida aks etishi	215
--	-----

Abdullayeva M. Targ'ibot matnlarida sarlavha tanlash mahorati	218
Abdulxayrov B. Nutq madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyatiga doir.....	221
Arziqulova S. Zamonaviy o'zbek va turk ayollar she'riyatida poetik mushtarakliklar.....	225
Bahodirova G. Zamonaviy terminologiyada ilmiy termin va kasb-hunar termini tushunchalari talqini muammolari	228
Gulomova S. Features of the formation and development of the tourism sphere and its terminology.....	232
Jabbarova A. Ingliz va o'zbek tillarida inson hissiyotlarini tavsiflovchi frazeologik birliklar	235
Jonuzoqova Ch. Sharlotta Bronte she'rlarida ayol ruhiy kechinmalarining tarjimada berilishi	238
Qurbonova N. The peculiarity of horror genre in the style of Stephen King	240
Qo'chqorova D. O'zbek dramalarida uchrovchi paremiyalarning lingvokulturologik xususiyatlari.....	243
Murtazayeva D. Teleko'rsatuvlar va sportni ommalashtirish masalalari (O'zMTRK misolida).....	246
Nazirova O. Zamonaviy dizayn (kostyum) terminologiyasining tarjima tahlili	249
Nashirova Sh. Defining homonyms, homographs and homophones in english-uzbek and uzbek-english dictionaries.....	252
Norova M. Fransuz tilida arxaizm va istorizmlarning o'rni	255
Sarsenbaeva Z. Variations in style, genre, and cultural context in the works of Ulugbek Hamdamov	258
Tojimatova Z. "Ijodkor shaxs" tushuchasining ilmiy-nazariy asoslari	261
Tolipova M. Ingliz va o'zbek tillarida undov so'zlarni tarjima qilishdagi muammolar.....	264
Umurqulov Z. O'xshatishlar qiyosiy ifodaning alohida turi sifatida.....	266
Xidirova M. The study of animal names in uzbek linguistics	269
Xudoyberdiyeva O. Ingliz va o'zbek tillari raqs terminologiyasida o'zlashma so'zlarning o'rni	272
Xusanova Z., Usmonova Sh. Ingliz va o'zbek tillaridagi gazeta matnlarida ekspressivlikni ta'minlovchi vositalar	275
Hamidova V. On the thematic classification of lexemas relating to numerative words in persian language	278
Hoshimova M. Doston janrining XIX-XX asrlardagi ko'rinishi	281
Shodmonqulova D. Omonimlik va polisemantik hodisalarni farqlash	284
Шокирова М. Филологическое исследование пьесы Мольера Тартюф.....	288
Ergashev M. Termin belgisining semantik tuzilishi	291
Yusupova M. Comparative analysis of ethno cultural units in bilingual and monolingual dictionaries: a study of english and uzbek languages	294



UDK:111.130.2;17

Oybek BERKINOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: oybekberkinov98@gmail.com

Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori, DSc, G.G'. G'affarova taqrizi asosida

ONTOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CYBERSPACE

Annotation

This article explores the emergence of the concept of cyberontology and the philosophical and technical approaches of various scientists. The characteristics of "anonymity (secrecy)", "presence of virtual names in individuals", "expression of feelings" of cyberspace as a means of communication are analyzed separately. Cyberspace subject, cyberspace object, cyberspace platform and cyberspace activities are represented as structural elements of cyberspace anthology.

Key words: Cyber space, cyber anthology, virtual reality, anonymity, consciousness.

ОНТОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КИБЕРПРОСТРАНСТВА

Аннотация

В этой статье исследуется возникновение концепции киберонтологии и философские и технические подходы различных ученых. Отдельно проанализированы особенности киберпространства как средства коммуникации "анонимность", "наличие виртуальных имен у индивидов", "выражение чувств". В качестве структурных элементов антологии киберпространства выступают субъект киберпространства, объект киберпространства, платформа киберпространства и деятельность киберпространства.

Ключевые слова: Киберпространство, киберонтология, виртуальная реальность, анонимность, сознание.

KIBERMAKONNING ONTOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada kiberontologiya tushunchasining paydo bo'lishi va turli olimlarning falsafiy va texnik jihatdan yondashuvlari o'rganilgan. Kibermakonning muloqot vositasi sifatida "anonimlik(yashirinlik)", "shaxslarda virtual ismlarning mavjudligi", "his-tuyg'ularni ifoda etish" xususiyatlari alohida tahlil qilingan. Kibermakon ontologiyasi tarkibiy elementlari sifatida kibermakon subyekti, kibermakon obyekti, kibermakon platformasi va kibermakon faoliyati namoyon etiladi.

Kalit so'zlar: Kibermakon, kiberontologiya, virtual haqiqat, anonimlik, ong.

Kirish. Bugungi kunda insonning real hayoti bilan parallel ravishda uning tarmoqdagi hayoti ham mavjuddir. Kibermakon insonga zarur bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun yangi imkoniyatlarni, yo'llarni va usullarni ochib beradi. Insoniyatning klassik ehtiyojlari bo'lgan aloqa o'rnatish, muloqot qilish, yangi ma'lumotlarga ega bo'lish, mehnat qilish, yangi usullarni topish kabi ko'plab ehtiyojlarni qoplash maydoniga aylandi. Shu nuqtai nazardan insonning hayoti "parallel" ravishda kibermakonda ham kechishi zamonaviy inson sivilizatsiyasining muqobil ontologiyasi – kiberontologiyaning tadbiiq etilishligiga turtki bermoqda. Kiberontologiya tushunchasi ilmiy termin sifatida rus olimi V.A.Pleshakov tomonidan ishlatilgan bo'lib, kiberontologiya – o'z-o'zini anglashning rivojlanish darajasi va shaxsning motivatsion ehtiyoj sohasi, shuningdek, ijtimoiylashuvchi muhitning obyektiv va subyektiv mikro, makro, mezo va megafaktorlari majmuasi bilan belgilanadigan kibermakonning innovatsion muqobil haqiqatida insonning mavjudligi yoki hayotiy faoliyatidir[1], deyiladi. Yuqoridagi ta'rifdan ko'rishimiz mumkinki, insonning kibermakondagi hayoti uning faolligi va ijtimoiy ehtiyojlarini qay darajada qondira olayotganligi qobiliyati bilan belgilanmoqda. Insonlarning "Ikkinchi parallel" dunyosidagi barcha harakatlar kibermakonda kechganligi tufayli ayrim olimlar uni "kibermakon ontologiyasi" deb ham atashadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Kibermakon ontologiyasi" atamasi amerikalik faylasuf D.Kapsel tomonidan

2000-yilda "Kibermakon ontologiyasi: falsafa, huquq va kelajak intellektual mulk" asarida qo'llanilgan[2]. Biz funksional jihatdan mohiyati bir bo'lganligi uchun kiberontologiya va kibermakon ontologiyasini bir ma'noda qo'llashni va umumiy qilib "kibermakonning ontologik xususiyatlari" deb atashni taklif qilamiz.

Bir narsani ta'kidlab o'tishimiz kerakki, bugunga qadar kibermakonning ontologik jihatlari deyarli yoritilmagan. Faqatgina yuqorida biz sanab o'tgan D.Kapsel asarlarida va Mihael Heyimning The Metaphysics of Virtual Reality(Virtual haqiqat metafizikasi) nomli asarida uchratishimiz mumkin. Mihael Heyimning asarida kibermakon virtual haqiqat sifatida talqin qilinadi. Lekin, kibermakon va virtual haqiqat tushunchalari bir-biridan farq qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ontologik jihatdan kibermakonni borliqdagi muloqot vositasi sifatida talqin qilishligimiz mumkin. Muloqot inson va jamiyat hayoti va faoliyatining eng asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Muloqot orqali inson atrof-muhit bilan, boshqa insonlar bilan o'zaro ta'sirga kirishadi. Muloqot barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarning, jumladan, psixologiya va falsafaning o'rganish obyektlari hisoblanadi. Muloqot o'zida kuchli emotsional va psixologik ta'sirni mujassamlashtirgan vosita sifatida murabbiy(ustoz, tarbiya beruvchi, rahbar...) va tarbiyalanuvchi(bolalar, o'quvchilar, talabalar, fuqarolar...) o'rtasida muayyan ruhiy ko'nikma va muhitni(aura, atmosfera) vujudga keltiradi va natijada, ular o'rtasida o'zaro ruhiy-

ma'naviy yaqinlik, birdamlik, o'zaro bir-birini tushunish kabi sog'lom sharoit yuzaga keladi[3]. Muloqot vujudga kelishligi uchun subyektlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik bo'lishi lozim. Madaniy hosila sifatida muloqot falsafiy asoslarga ega bo'lib, ko'p qirrali va bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ijtimoiy va ilmiy haqiqatlarni paydo qiladi[4].

Tarixan olib qaralganda insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi va rivojlanishida muloqot markaziy omil hisoblanadi. Kishilarni ijtimoiy ehtiyoj sifatida bir-biriga bo'g'laydi. Inson o'z ehtiyojlarini bir o'zi qondira olmaydi. Kishilarning muloqotga kirishi natijasida jamiyat elementlari yuzaga keladi[5]. Qadimdan muloqotning asosiy vositasi sifatida til katta ahamiyatga kasb etgan va ming yillab o'z pozitsiyasini saqlagan. Bugungi kunda ham kundalik turmushda ham muloqot vositasi hisoblanadi. Fan-texnika rivojlanishi, yangi ixtirolarning paydo bo'lishi natijasida muloqotning yangi vositalari ham paydo bo'ldi. Yozuvning paydo bo'lishi, qog'ozning ixtiro qilinishi kabi hodisalar insonlarga turli zamonlar va makonlar oralig'ida muloqotning yangi ko'rinishlari vujudga keltirdi. XX asr oxiriga kelib yangi texnologiyalarning vujudga kelishi natijasida muloqotning 2 turga ajralishiga sabab bo'ldi. Bular: bevosita muloqot va bilvosita muloqotlardir. Bevosita muloqot bu – insonlar o'rtasida yuzma-yuz kechadigan, asosan, his-tuyg'ular, so'zlashuvlar va imo-ishoralar orqali kechadigan muloqotdir. Bilvosita muloqot esa aloqa vositalari, ya'ni telefon, kompyuterlar, dasturlar, internet, ijtimoiy tarmoqlar va turli saytlar orqali kechadigan suxbatlardan iboratdir. Bilvosita muloqotda asosiy obyekt – kibermakon hisoblanadi. Kibermakondagi muloqot o'zining keng qamrovligi, tezkorligi, makon va zamon osha harakat qilishi bilan ajralib turadi. Misol uchun ijtimoiy tarmoqlarning bugungi kunimizni tasavvur qilish qiyin. Har qanday ijtimoiy, siyosiy, madaniy va boshqa aloqalardan suxbat davrasi funksiyasini bajarib kelmoqda.

Muloqot usuliga ko'ra, internet ham bilvosita aloqadir, chunki u texnik vositalar yordamida amalga oshiriladi. Axborotni uzatish va idrok etishga ko'ra, kompyuter aloqasi actual(haqiqiy odamlar bilan aloqa) va virtual(noma'lum, xayoliy suhbatdoshlar bilan aloqa)ga bo'linadi[6]. Birgina Telegramm ijtimoiy tarmog'ini oladigan bo'lsak, kundalik aloqalarimizda eng asosiy vositalardan biriga aylanib ulguramiz. Demandsage.com sayti 2024-yilda 18-yanvar sanasi bilan Telegramm haqidagi statistik ma'lumotlarni e'lon qildi:

telegramning har oyda 800 million faol foydalanuvchisi bor va 2024-yil oxirigacha uning foydalanuvchilar soni 1 milliardga yetishi kutilmoqda;

telegramdan har kuni 55,2 million kishi foydalanadi;

telegram orqali har kuni 15 milliarddan ortiq habar yuboriladi;

telegram ilovasi shu kungacha 1 milliard martadan ortiq yuklab olingan;

telegram foydalanuvchisi har oyda o'rtacha 2,9 soat vaqt sarflaydi[7].

Yuqoridagi raqamlar shuni ko'rsatadiki, birgina tarmoqning o'zi millionlab insonlarning muloqot maydoniga aylanib ulguramiz. Har birimiz tan olishimiz kerak, biz ham ushbu tarmoqda “qarindoshlar gruppasi”, “do'stlar gruppasi”, “kursdoshlar gruppasi” kabi davralarning a'zosimiz va bunda har birimizning o'z pozitsiyamiz mavjud.

Kibermakondagi muloqotning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni sanab o'tishimiz mumkin:

Anonimlik (yashirinlik). Inson yuzma-yuz muloqotga kirishar ekan, ayrim holatlarda fikrini to'la ifoda eta olmaslik, nutqiy noqislik, psixologik depressiya, hijolat bo'lish kabi muammolarga duch keladi. Bu muammolar tufayli qarshisidagi subyektaga yetarli darajada ta'sir o'tkaza olmaydi yoki o'z ijtimoiy ehtiyojlarini to'la qondira olmaydi. Anonimlik

muloqotchiga o'z hissiyotlarini yashirish va to'g'ri fikr yuritishi uchun yetarli bo'lgan muhitni bera oladi.

N.N.Bogolomova ommaviy kommunikatsiyaning quyidagi: muloqotda texnik vositalardan foydalanish, katta ijtimoiy guruhlarning jalb qilinishi, qayta aloqa javobining majburiy emasligi, kommunikatsiyalarning real hayotda notanish, anonym qolgan holda bir-biridan ayrologi kabi asosiy xususiyatlarini ajratadi[8].

E.V.Ivanov kibermakon muloqotda anonimlikning muhimligini ta'minlash mushkul, chunki, anonimlik muloqotga kirishganlarga o'zini erkin his qilishi, o'zining his tuyg'u va fikrlaridan uyalmaslikni ta'minlaydi[9], deydi. Lekin, bir narsaga e'tibor berish kerakki, anonimlik ortida insonlar sha'niga, qadr-qimmatiga, obrusiga qaratilgan tajovuzlar ham paydo bo'lmoqda. Jamiyat barqarorligiga rahna solish, davlat siyosatiga qarshi chiqish, yovuzlikka targ'ibot qilish kabi harakatlarga ham aynan anonimlik “homiylilik” qilmoqda desak ham bo'ladi. Anonimlik natijasida aloqa jarayonida psixologik va ijtimoiy xavfning pasayishi bilan bog'liq yana bir xususiyat – aloqa ishtirokchilarining affektiv qulligi, g'ayritabiiyligi va mas'uliyatsizligi tarmoqda manoyon bo'ladi. Muloqot o'zini ifoda etish va xatti-harakatlarning katta erkinligini ko'rsatadi, chunki boshqalar tomonidan ta'sir qilish va shaxsiy salbiy baholash xavfi minimaldir. Bundan tashqari his-tuyg'ularni nafaqat ifoda etish, balki yashirish ham mumkin[10]. Anonim qiyofadagi tajovuzlardan jamiyat a'zolarini himoya qilish vazifasi quyidagi usullar yordamida: insonlar tafakkur darajasi va muloqot madaniyatini oshirish orqali amalga oshiriladi.

Shaxslarda virtual ismlarning mavjudligi. Ism insonga tug'ilganidan beriladigan, jamiyatda o'rni bildiradigan, shaxsini tasdiqlaydigan va boshqalarning murojaatlari uchun vosita vazifasini bajaradigan ijtimoiy kategoriyadir.

His-tuyg'ularni ifoda etish. Kibermakondagi muloqotlarda ham tuyg'ular muhim ahamiyatga egadir. Suhbatdoshlar bir-biriga ta'sir etishda his-tuyg'ular va tarmoq imkoniyatlarini integratsiyalashtiradilar. Tarmoq imkoniyatlari sifatida ovozli chatlar, video qo'ng'iroqlar, emotsional stikerlar, giflar kabi tuyg'uni ifodalashga yordam beruvchi vositalarni olishligimiz mumkin. Har qanday kommunikativ jarayonning hissiy konteksti uning mazmunini tashkil qiladi, ammo u aloqa jarayonining o'zi bilan bir xil emas, balki unga reaksiya. Muloqotning hissiy omilining ahamiyati insonning subyektiv dunyosi bilan bog'liq[11]. Real hayotdagi tafakkur va tuyg'u virtual his-tuyg'ularni boshqaradi.

Tahlil va natijalar. Ontologik jihatdan kibermakon ong bilan bo'liq bo'lgan transformatsion hodisadir. Professor Matbua Ahmedova ongga quyidagicha ta'rif beradi: ong – falsafaning subyektiv reallikni ifodalovchi kategoriyasidir; odamning, uning miyyasi va psixikasining tashqi dunyoni ideal aks ettirishidir; insonning ma'naviy dunyosidir, o'zining dunyoda borligini anglab yetishidir; uning tashqi dunyoga munosabatidir[12]. Kibermakon inson ongi orqali uning turmush tarzi, hayollari kechadigan makon, tashqi dunyoni ko'rsatadigan va ehtiyojlarini qoplaydigan vosita, ruhiy ta'sir o'tkazish kuchiga ega bo'lgan qurol vazifasini ham bajarmoqda. Insonlar yangilik yaratish, ixtiro qilish va ma'lumot(aql) ishlab chiqarish uchun ongi orqali o'zlarining donoligidan foydalanadilar. Garchi odam bo'lmagan organizmlar ham tarmoqlar yarata oladilar. Misol uchun o'rgimchak to'ri, chumoli uyasi, qushlarning sinxron harakati, ekotizim kabilarni o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan tarmoq desak bo'ladi. Lekin, ular ong, donolik va bilimdan iborat bo'lgan axborotni yaratishga qodir emas. Insonning boshqa mavjudotlardan farqlab turuvchi xususiyati bo'lgan ong haqida gapirar ekanmiz, al-Farobiyning fikrlariga yuzlanamiz: “Inson o'zining alohida xususiyatlari bilan barcha hayvonlardan farq qiladi, chunki unda jon bor, unda tana a'zolari vositasida ta'sir

etuvchi kuchlar paydo bo'ladi, bundan tashqari, unda tana a'zolarining vositasiz ta'sir etuvchi kuch ham bor. Bu kuch – aqlidir"[13].

Xitoylik Hongrui Zhao kiberontologiyaning mohiyati kibermakonning elementlari majmuasidan iborat ekanligini ta'kidlaydi: kiberontologiya – bu kibermakonning tabiati va jismoniy mavjudligini umumlashtirish va tavsiflash, ya'ni kibermakonning umumiy elementlarini tavsiflash orqali uning jismoniy ko'rinishini har tomonlama idrok etish va umumiy ma'noda "kibermakon nima?", "kibermakonda qanday tartib mavjud?", "kibermakon va an'anaviy suverenitet o'rtasidagi bog'liqlik qanday?" va "agar u mavjud bo'lsa, uni himoya qilish mumkin bo'lsa, uning asosiy elementlari nimalardan iborat?" kabi savollarga javob berishdir[14]. Kibermakon ontologiyasining o'ziga xos xususiyatlari uning tarkibiy elementlar yig'indisining mazmuni bilan belgilanishi haqida ham nazariyalar mavjud. Hongrui Zhao kibermakon antalogiyasining tarkibiy elementlarini quyidagi 4 elementdan iborat ekanligini ta'kidlaydi: kibermakon subyekti, kibermakon obyekt, kibermakon platformasi va kibermakon faoliyati.


Kibermakon subyekti. Kibermakon subyekti – tarmoqda harakat qiluvchi, axborot izlovchi, uzatuvchi, tahlil qiluvchi, qabul qiluvchi, foydalanuvchi shaxslardir. Subyektlar kibermakon muallifligiga ham da'vogarlik qiladilar. Chunki, barcha raqamli tarmoqlarning ijodkori, shakllantiruvchisi va

yo'q qiluvchisi inson hisoblanadi. Kibermakon imkoniyatlari inson imkoniyatlaridan foydalanishning mahsulidir.

Kibermakon obyekt. Kibermakon obyekt – insonlar tomonidan kibermakonda yaratiladigan va foydalaniladigan jismoniy tashuvchilar tomonidan olib boriladigan axborotlar tushuniladi. Ular insonlarning e'tiborida bo'lgan, bir-biri bilan aloqa qiladigan va ma'lumot almashadigan bilim ontologiyasidir. Obyektsiz kibermakon bo'la olmaydi. Kibermakonning barcha funksiyalari obyekt bilan subyekt o'rtasida munosabat qurishga qaratiladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Kibermakon platformasi. Kibermakon platformasi – odamlar tomonidan ixtiro qilingan, yaratilgan, ishlab chiqarilgan turli ko'rinishga ega tarmoq uskunolari, dasturiy ta'minotlar, dasturlar, infratuzilmalar, kommunikatsiyalar, aloqa stansiyalarning jamlanmasidir. Kibermakon subyektlari kibermakonda harakatlashi uchun foydalanadigan telefonlar, kompyuterlar, gadjetlar, sensor qurilmalar va barcha protsessorlar ham obyekt sifatida e'tirof etiladi.

Kibermakon faoliyati. Kibermakon faoliyati – subyektlarning o'zaro bir-birlari bilan aloqa qurishlari, ma'lumot almashish, ma'lumot joylash, tahrirlar va qabul qilish kabi jarayonlardir. Bugun dunyo aholisining katta qismi kibermakonda faoliyat yuritayotganligi mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.



Kibermakon ontologiyasini Xitoylik faylasuflar Qadimgi Xitoy Tayji diogrammasiga qiyoslaydilar. Bu diogramma 4 raqamni o'z ichiga oladi: haqiqiy fazada bir, ikki, uch, to'rt, ya'ni yin va yang S shaklidagi bo'linuvchi chiziq va aylana kiber elementlarning aloqasini anglatadi[15].

1-rasm. Kibermakonning to'rt elementdan iborat Tayji diogrammasi

Tasvirdan ko'rinib turibiki, kibermakon murakkab va bir-biriga bog'liq bo'lgan harakatlar tizimidir.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yuqoridagilardan kelib chiqib kibermakonning ontologik xususiyatlari sifatida quyidagi xulosalarga kelamiz.

Kibermakon – bu ramziy voqelik va zamonaviy texnologiyalarni birlashtirgan, odamlarning aqliy faoliyatini osonlashtiradigan va sezilarli darajada tezlashtiradigan proyeksion madaniyat makonining yangi turidir.

Kompyuter yordamida kibermakonning ramziy tartibi voqelikni va uni idrok etishimizni muvofiqlashtirishni kafolatlaydi, shu bilan birga uning vositachilik rolini yashiradi. Shu sababli, subyektning kompyuter virtual haqiqatining voqealar seriyasiga nisbatan masofasi kibermakonni idrok etishning o'ziga xos ijobiy shartidir.

Kibermakon virtual haqiqat texnologiyalari orqali ijtimoiy vaqt bilan bilvosita bog'liqdir. Har bir texnologiya qisman prognostik funksiyani bajaradi, shuningdek yaqin kelajakning ba'zi mafkuraviy tasavvurlarini o'zida mujassam

etadi. Kibermakonning o'zi texnologiyaga emas, balki uning ijtimoiy rejimiga bog'liq.

Bo'sh kibermakon statik sohadir, shuning uchun u ijtimoiy vaqt bilan hech qanday aloqasi yo'q. Kiber fazoda ijtimoiy utopiya yoki distopiyaga xos xususiyatlar mavjud emas.

Shunday qilib, biz ushbu tadqiqotning asosiy muammosini hal qilishga yaqinlashdik. Kibermakonda yagona ideal, subyektlararo makon sifatida tasavvur qilish, unda individual virtual haqiqatlar ochiladi, paydo bo'ladi va yo'qoladi. "Kibermakon" va "virtual haqiqat" tushunchalari qisman bir-biriga mos keladi. Bundan tashqari, yuqorida keltirilgan kibermakonning ontologik modellari faqat mavzu darajasini o'z ichiga oladi. Ushbu modellarda ontologik kontekstning o'zi muammoli emas, buning natijasida kiberhujum ehtimoli shartlarini oldindan aks ettirish ham amalga oshirilmagan.

Aytilganlarning barchasini umumlashtirib, umumiy xulosa chiqaramiz: kibermakon – bu topologiyasida yangi, rizomatik, semiotik makonning bir turi bo'lib, unda belgilar bilan operatsiyalar odamlarning aqliy faoliyatini osonlashtiradigan va sezilarli darajada tezlashtiradigan zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi. Kibermakon umuminsoniy maqsadlarga erishishning yangi usullarini aniqlash va tushunish imkoniyatlarini izlash vositasi sifatida ishlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Плешаков В.А. Киберонтология и психология безопасности информационной сферы: аспект киберсоциализации человека в социальных сетях интернет-среды // Вестник Православного Свято-Тихоновского гуманитарного университета. Серия IV. Педагогика. Психология. 2010. № 4 (19). С. 131–141.
2. Koepsell D. The Ontology of Cyberspace: Philosophy, Law, and the Future of Intellectual Property. Open Court, 2000. 160 с.
3. Холмұминов Ж. Маданиятлараро мулоқотнинг ижтимоий-фалсафий факторлари. See discussions, stats, and author profiles for this publication at: <https://www.researchgate.net/publication/337655867>
4. Хуршид Улмасжонович Саматов. Мулоқот: Ижтимоий-фалсафий таҳлил. Eurasian journal of academic research. <https://zenodo.org/records/5759481>
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T.1993. 193 bet.
6. Галичкина, Е.Н. Характеристика компьютерного дискурса // Вестник ОГУ [Электронный ресурс]. — Режим доступа: http://www.vestnik.osu.ru/2004_10/9.pdf. — Дата доступа: 20.12.2016.
7. <https://www.demandsage.com/telegram-statistics/#:~:text=Telegram%20has%20800%20million%20monthly,by%20the%20end%20of%202024>.
8. Богомолова, Н. Н. Массовая коммуникация и общение / Н. Н. Бого-молова. – М.: Знание, 1988. – 80 с.
9. Иванов, В. Е. Интернет в формировании диалогического простран-ства в социокультурной среде // Мир психологии. – 2000. – № 2. – С. 52–56
10. Паршуков И.В., Евтюгина А.А., Особенности общения в популярных социальных сетях. https://elar.rsvpu.ru/bitstream/123456789/13262/1/apr_2013_039.pdf
11. Первушина В.Н., Савушкин Л.М. Особенности коммуникации в киберпространстве. <http://www.vestnik.vsu.ru/pdf/phylosophy/2017/01/2017-01-05.pdf>
12. Falsafa: Darslik/[M.A.Ahmedova, V.S.Xan, D.A.Alimova va boshq.]; M.A.Ahmedova umumiy tahriri ostida: O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. -496-b.
13. Фараби. Существо вопросов // Антология мировой философии. М., 1969. Т.1. 4.2. 728-б.
14. Hongrui Zhao (Harbin Institute of Technology, China). Cyberspace & Sovereignty. February. 2022 https://doi.org/10.1142/9789811227790_others01open_in_new
15. Zhong, J. Ch. (2015). Internet falsafasi (III, 14-19-betlar). Pekin: Elektron sanoat nashriyoti.
16. Berkinov O.T. Kiber atamasining mazmun-mohiyati: tarixi va bugun // NAMDU ilmiy axborotnomasi, [2024-6]. – 270-273 bet.
17. Berkinov O. Kibermakonda yoshlar ma'naviy hayoti. Monografiya. – Chirchiq: “Zebo prints”, 2023. – 108 bet.